



Xalq qo‘shilari vositasida o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik asoslari

To‘xtasin Rajabov Ibodovich

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası professori, p.f.b.f.d.(PhD)


Jahonning ko‘pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatga ega bo‘lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Har bir mamlakatning musiqi tarbiyasi g‘oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning sotsial tuzumiga xizmat qiladi.

Har bir xalqning maorifida musiqi tarbiyasi, qonuniyatlari va shu xalqning milliy musiqi madaniyati, tili, madaniy an‘analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqi tarbiyasning strukturasi, sistemasi (tizimi) va ilmiy-metodik yutuqlar boshqa millatning ma‘rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta‘sir etadi.

Jamyatimiz taraqqiyotida ma‘naviy va jismoniy sog‘lom avlodni tarbiyalash bugungi kunda bizning eng ustuvor vazifalarimizdan biri sanaladi. Zeroki, qator aytilgan bu fikrlar zahirida har doimgidek yoshlar turadi, sababi ularning bugungi kundagi olgan ta‘lim- tarbiyasi nafaqat o‘zlari uchun balki yurtimiz taraqqiyoti uchun eng muhim poydevordir. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bejizga “Agar mendan sizni nima qiynaydi”deb so ‘rasangiz, farzandlarimizning ta‘lim va tarbiyasi deb javob beraman“- degan purma‘no fikrlari fikrimiz yaqqol dalilidir.

Biz yashab turgan jamiyat taraqqiyotida musiqi va san‘atning o‘rni beqiyosdir. Har bir millat va elatlarni birlashtiradigan an‘analarimizni mustahkamlaydigan ham mana shu hisoblanadi. Har qanday ko‘ngilni o‘ziga rom eta oladigan, insonlarni qalbiga ezgulik urug‘ini ekib boshqa yomon illatlarga qarshi kurashadigan ham musiqi desak mubolag‘a emas.

Aholi ma‘naviyatini yuksaltirish, kishilarda, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlod ma‘naviy tafakkurni shakllantirish, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davlat siyosati darajasida ko‘tarildi. Yangi O‘zbekiston sharoitida ham bu an‘ana davom etayotganligi davlatimiz tomonidan yaratilayotgan keng imkoniyatlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Xalqimizning o ‘tmish an‘analari, milliy urf-odatlar, milliy musiqi san‘atining eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qilish, milliy musiqi an‘analarini saqlash va rivojlantirish, yosh avlodda san‘atga muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish hamda xalqaro ijodiy aloqalarni kengaytirish, tinchlik, do‘stlik, o‘zaro hamjihatlik, madaniy-





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12

ma'naviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish maqsadida yurtimizda keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Musiqqa ohanglari lad va ritm tiyg'usi usullari asosida o'rgatiladi. Musiqqa ta'limining milliy asosini tarkib toptirishda pianino cholg'u asbob bilan birgalikda o'zbek milliy cholg'u asboblariidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa doira chertib, qo'shiq kuylash, milliy raqs elementlarini ijro etish, ijodkorlik bilan shug'ullanish o'quvchilarni sehrlil musiqqa olamiga oshufta etadi. O'quvchilar bu jarayonda o'zbek xalq musiqqa madaniyatini ijobiy an'alarini bevosita idrok etadilar. Maktabda sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida xalq qo'shiqlari turkumiga kiruvchi bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatish o'quvchilar musiqiy estetik tarbiyani xalq musiqasi na'munalari orqali o'rganadilar. Hozirgi kunda barcha umumta'lim maktablarida bolalarni xalq musiqasi bilan tanishtirish DTS musiqqa dasturi asosida olib borilmoqda. Ta'limni milliy ruhda rivojlantirish maqsadida birinchi sinfdan boshlab o'zbek xalq musiqasi bilan tanishtirib boriladi. Bunga misol qilib, I dasturida tinglash uchun birinchi "Dutor bayoti", "Andijon polkasi", "Farg'onacha", "Olmacha anor", "Allama yorim" kabi kuy-qo'shiqlarni keltirishimiz mumkin. Xalq musiqasi bolalar ongiga tez yetib boradi, ularni zavqlantiradi. Ijodiy kechinmalar uyg'otadi. Chunki xalq musiqasi o'ziga xos badiiy tilga egdir. Unda milliy musiqqa san'atimizning eng yorqin na'munalari o'z aksini topgan. Xalq musiqasi eng sodda eng ixcham ravon yorqin ohangda ijro etiladi. Shuning ushun ham beshikda yotgan go'dak alla qo'shig'ini eshitishi bilan orom olib uxlab qoladi. Chunki, bu ohangda so'z, kuy, mutanosibliyi og'zaki ijro etiladi. Shuning uchun ham ohanglar bir-biriga payvastdir. Asrlar davomida o'zbek kuy-qo'shiqlari xalqimiz orasida mehnat, to'y-marosim, kurash bayramlarida insonlar uchun ilhom manbai bo'lib kelgan. Biz musiqqa madaniyati darslarida boshlang'ich sinfdan boshlab o'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlarini bolalarga tushunarli, tez va ifodali qilib yetkazish uchun turli metodlardan va innovatsion texnologiyalardan foydalanishimiz zarur. Musiqqa san'ati boshqa san'at turlariga qaraganda insonlarga yaqin bo'lgan muhim san'at turidir. Xalqimiz azal-azaldan boy musiqqa merosiga ega bo'lgan. Bebaho qadriyatlarimiz, boqiy merosimiz jahonni xayratga slogan mumtoz musiqqa san'atimiz mavjud. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmunli va yo'nalishi umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi asosida belgilangan. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat, milliy ma'sulyat tuyg'usini anglaydigan o'quvchilarni tarbiyalab voyaga yetkazish mamlakatni mustaqil





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12

va barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Milliy tarbiya umuminsoniy qadriyatlardan ajralgan holda rivojlana olmaydi.

Hozirgi davrda shaxs ma'naviyatini tarbiyalash vazifasi maktabda musiqa ta'lim tarbiyasi ishlarini sifatli bosqichga ko'tarishni taqozo etadi. Bugungi kunda musiqa, ta'lim tarbiyasining maqsadi va vazifalari nihoyatda muhim.

Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsadi va yosh avlodni musiqa merosimizga vorislik qila oladigan yoshlar qadrlaydigan madaniy inson sifatida voyaga yetkazishdan iborat. Buning uchun har bir o'quvchining musiqaga bo'lgan iqtidorlarini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish musiqadan zaruriy bilim va amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish maktab musiqa darslariga bevosita bog'liq.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida xalq qo'shiqlari turkumiga kiruvchi bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatish musiqa ta'lim tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirish ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish maktabdagi musiqa darslariga bevosita bog'liq.

Musiqa ta'lim tarbiyasining konsepsiyasida maktabda musiqa fani boshqa fanlar qatori o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Musiqa ta'limini sifatli bosqichga ko'tarish uchun maktabda teng huquqli fan hisoblanadi. Bu esa hozirgi zamon o'quvchisidan dars mashg'ulotlariga ijobiy munosabatda bo'lishi, o'quvchilar musiqiy faoliyatlarini oshirishni to'g'ri tashkil etish va boshqarish faollikni talab etadi. Musiqa dars mashg'uloti sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarni esa har bir o'qituvchi bilishi kerak.

Birinchidan musiqa tarixi nazariyasi ijrochilikka doir turli namunalardan ayrim mashqlari, musiqa savodi mashg'ulotlari, musiqa tinglash, musiqa ta'limi va adabiyoti, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlari, musiqada ijodkorlar faoliyatlaridan iborat darslar kiradi.

Ikkinchidan musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalar ya'ni "tili" bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'z bilan tasviriy san'at bilan, raqs badiiy harakatlar bilan ifodalansa, musiqiy tovushlardan vujudga kelgan ohang vositasidan foydalanadi.

Uchinchidan musiqa bolalarda faol hissiy ta'sir ko'rsatadi, ijobiy ko'rsatmalar, kechinmalar uyg'otadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani bo'yicha dasturi bir dars o'zida ta'limning musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqa





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12

savodxonligi bolalar cholg'u asboblari va ritmik harakatlar bajarish musiqa ijodkorlari kabi bosqichlar bir-biri bilan bog'lanib yaxlit holda amalga oshirilishi nazarda tutilishi kerak. Zamonaviy mashg'ulotlardan musiqa idroki yetakchi faoliyat sifatida muhim rol o'ynaydi. Chunki bu bosqichda o'quvchilar faoliyatida ko'proq o'yin xususiyatlari bo'lib turadi. Shunday qilib ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari to'laligicha amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni ilmiy uslub jihatdan yetakchi darajada ta'minlash, milliy musiqa ta'lim mazmunini anglash kabi muhim tadbirlar, shubhasiz musiqa tarbiya samaradorligini oshirishga imkon beradi. Bu esa musiqani maktab hayotida o'quvchilar qalbida keng o'rin egallashi va ularning ma'naviyatlarini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Shaxs kamolotida musiqa tarbiyasining tarkibiy qismi sanalmish xalq qo'shiqlari vositasida ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'shirish albatta ta'lim metodikasiga bevosita bog'liqdir. Musiqa tarbiyasi metodikasi fan sifatida tizimiga mansub bo'lib o'zining mustaqil o'rniga ega. Bu fan musiqa tarbiyasi metodikasi mazmuni, metodlarini yanada takomillashtirish maqsadida uning qonuniyatlarini o'rganadi. Musiqa ta'limi muassasalarida nafosat, musiqashunoslik fiziologiya, ruxshunoslik fanlarining umumlashtirilgan tajribalariga tayanadi. Musiqa tarbiya metodikasi ayniqsa nafosat musiqashunoslik fanlari bilan uzviy bog'liq. Nafosat nomi uning metodikasining asosini tashkil etsa, tarbiyaning mazmun va metodlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida xalq qo'shiqlari turkumiga kiruvchi bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatish dolzarb metodik muammo sifatida bo'lib o'quvchilarning kuylash holatidagi muammolarni hal qilishda metodika fiziologiya tadqiqotlariga taniladi. Musiqa tarbiyasi metodikasining mohiyati musiqa san'ati hamda madaniyati o'sib kelayotgan yosh avlod uchun muhim ahamiyatga ega. Metodikaning fan sifatida rivojlanishi jamiyatda maorif va musiqa san'atini takomillashib borishi bilan bevosita bog'liqdir. Shular bilan birgalikda musiqa tarbiyasi metodikasi umumiy prinsiplarini ilgari suradi. Bular onglilik badiiy va texnik rivojlanish prinsiplarga ega, bu prinsiplar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish musiqaga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, badiiylikni tarbiyalashga qaratilgandir.

Musiqa asarni ongli idrok etish asar mazmunini ochishda va o'quvchilarga musiqiy tajribalarni to'plashda, ularning ma'naviy dunyosini boyitishda yordam beradi. Musiqa tarbiyasi emotsional onglilik prinsipi uyg'unlashish ko'payishi orqali tinglanadigan asarni to'g'ri baholay olish imkoniyatlarini rivojlantiradi. Ularning musiqaga qiziqishida didlari





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12

tarbiyalab boriladi. Badiiy va texnik bosqich prinsipi asarning badiiy va ifodali ijro etish uchun malakali kadrlar talab etadi. O'quvchilarda kuylash malakalarini egallashlariga e'tibor beradi. O'quvchilarga musiqaning rivojlanish prinsiplari to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirish, qobiliyatlarining rivojlantirilishi natijasida ular ular yana musiqiy tushunchalarni bilib olishadi. Musiqa tarbiya metodikasi tarbiya jarayonida ko'pgina omillarga bog'liq ekanligini e'tirof etadi. Kishilarning musiqiy madaniyati faqatgina maktabning ta'siri ostidagina shakllanmaydi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "O'rta ta'limning davlat ta'lim standartlariga muvofiq musiqa madaniyati fani to'rta tarkibiy qismdan iborat".

Musiqa tinglash. Musiqa savodi.

Musiqa ijodkorligi. Jamoa bo'lib kuylash.

Albatta har bir darsda bu tarkibiy qismlar bir biri bilan bog'langan ravishda o'tiladi va ular har darsda turli variantlarda o'rin almashib kelishi mumkin. Darsning maqsadi esa o'z navbatida beshta yo'nalishni o'z ichiga oladi.

Tarbiyaviy maqsadi

Ilmiy maqsadi

Bilimlarni rivojlantiruvchi maqsad

Kasbga yo'naltiruvchi maqsad

Milliy mafkura g'oyalarni singdirish maqsadi

Bu maqsadlar ham albatta bir-biri bilan bog'langan holda amalga oshiriladi. Dars mavzusi maqsadlardan kelib chiqqan holda o'qituvchi har bir jarayonida o'quvchilar ongiga milliy mafkurasi g'oyalarni muntazam ravishda singdirib borishi lozim. Buni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'zining keng dunyo qarashi pedagogik-psixologik bilimi darsga ijodiy yondashish notiqlik qobiliyati va kasbiy mahorotidan unumli foydalangan holda har biri zarur bo'ladi. Bu esa o'qituvchining hozirgi davrda dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, ichki va tashqi siyosat siyosiy-ijtimoiy vaziyatni tinmay o'rganib, tahlil qilib, turishni va bilimlarni darsda o'quvchilarni yoshiga mos ravishda tushuntira olishi talab qilinadi. Hozirgi kunda ko'plab bastakorlarimiz va shoirlarimiz tomonidan zamon bilan hamnafas bo'lgan vatanparvarlik ruhida muhim tarbiyaviy estetik ahamiyatga ega bo'lgan qo'shiqlar yaratilayapti va bu jarayon hukumatimiz tomonidan munosib rag'batlantirilayapti. Musiqa madaniyati faning boshqa aniq fanlardan farqli tomoni shundaki u doimo zamon bilan hatto an'anaviy bayram va milliy qadriyatlarimiz bilan hamohang holda olib borishni o'qituvchidan uzluksiz ijodiy faoliyatni talab etadi.





Adabiyotlar.

1. Sh.M.Mirziyoevning ma'ruzasidan O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasining 2017 yil 4 avgustda 32 (4431)-sonida chop etilgan.
2. Safarov O. O'zbek bolalar folklori. T: O'qituvchi 1985 yil.
3. D.Rajabov va T.Rajabov "Xalq qo'shig'i va musiqa ijrochiligi" Toshkent "Navro'z" nashriyoti 2018 yil.
4. Ражабов, Т. И. (2020). Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников. Вестник науки и образования, (5-2 (83)), 34-37.
5. Раджабов, Т. И. (2019). Описание вековых ценностей в песне "тутовое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 70-71).
6. Ражабов, Д. З., & Ражабов, Т. И. (2018). Формирование и развитие узбекской народной лирики. In Международная образовательная деятельность как фактор развития и сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире (pp. 207-212).
7. Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. Miasto Przyszłości, 33, 167-176.
8. Ражабов, Т. И. (2021). Ўқувчи-ёшларга ўзбек миллий музыка фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. Science and Education, 2(11), 1094-1103.
9. Тўхтасин, Р. И. (2022). ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), (Special issue), 64-71.
10. Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN, 2795(546X),
11. Ражабов, Т. (2023). О 'zbek bolalar musiqiy o 'yin folklorining mavzuviy tasnifi. Общество и инновации, 4(5/S), 340-345.
12. Ражабов, Т. И. (2022). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Народные Музыка И Песни. Miasto Przyszłości, 29, 363-367.





13. Rajabov, T. I. (2023). Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 2(3), 59-68.
14. Rajabov, T. I. (2022). The role of bukhara folklore songs in youth education in the system of continuous education.
15. Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN*, 2795(546X), 1
16. Rajabov, T. I. (2023). Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 2(3), 59-68.
17. Madrimov, B. K., & Rajabov, T. I. (2022). Uzbek Ceremonial Folklore and its Characteristics. *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*, 1(4), 53-56.
18. Rajabov, T. (2022). UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O 'ZBEK MUSIQA FOLKLORINI O 'RGATISH DOLZARAB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(21), 21-31.
19. Ibodovich, T. R. (2022). PRACTICAL SITUATION OF TEACHING UZBEK MUSICAL FOLKLORE IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(6).
20. Ibodovich, R. T. (2021). EDUCATIONAL IMPORTANCE OF CHILDREN'S FOLKLORE SONGS IN MUSIC CULTURE CLASSES. *Thematics Journal of Arts and Culture*, 5(1).
21. 21.Ibodovich, R. T. (2020). Aesthetic education of students through national values (on the example of bukhara children's folklore). *European Journal of Research and Reflection in*
22. Urinov, Sh K. "THE MAIN CRITERIA OF CULTURAL CENTERS IN THE FORMATION OF CREATIVE ABILITY." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 3.5 (2023): 52-59.
23. KO'rinov, Sh, and G. Bozorboyeva. "MADANIYAT SOHASIDA PABLIK RILEYSHNZ (JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR) VA





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12

REKLAMA." *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN* 1.4 (2023): 217-224.

24. O'rinov, SH K., and E. Sultonmurodova. "MENEJERNING MADANIYAT SOHASIDAGI KASBIY MALAKASI, USLUBLARI VA REJALASHTIRISH." *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN* 1.4 (2023): 225-230.

25. KO'rinov, Sh. "LOYIHA MENEJMENTINING ASOSIY TAMOYILLARI." *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN* 1.4 (2023): 136-143.

26. Ne'matullayeva, Sh. "MADANIYAT MARKAZLARINING PROFESSIONAL JAMOALAR BILAN HAMKORLIKNI TASHKIL ETISH MASALALARI." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 2.3 (2023): 25-29.

27. KO'rinov, Sh, and S. Sadullayeva. "MUZEYSHUNOSLIK ISTIQBOLLARI." *IJODKOR O'QITUVCHI* 3.26 (2023): 97-101.

28. Orinov, Sh K., and S. Rozimurodova. "Maqom San'atiga E'tibor Milliy San'atimizga E'tibor." " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM. 2023.

29. O'rinov, Sh K., and G. Halimova. "HAVASKORLIK BADIY JAMOALARI TUSHUNCHASI VA FUNKSIONAL VAZIFASI." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 2. 2023.

30. KOrinov, Sh, and M. Ismoilova. "BOSHQARUV KONSEPSIYASI VA ASOSIY TUSHUNCHALAR." *PEDAGOGS jurnali* 26.2 (2023): 62-64.

31. KOrinov, Sh, and M. Hasanova. "BOSHQARUV MADANIYATI TARKIBI FUNKSIYALARI MEZONLARI-MADANIYAT MARKAZLARI MISOLIDA." *PEDAGOGS jurnali* 26.2 (2023): 65-66.

32. KOrinov, Sh, and M. Habibullayeva. "ART MENEJER-MARKETING FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI SIFATIDA." *PEDAGOGS jurnali* 26.2 (2023): 59-61.

33. KOrinov, Sh, and N. Jahongirova. "O'ZBEKISTONDA TEATR FAOLIYATIDA MARKETINGNING RIVOJLANISHI." *PEDAGOGS jurnali* 26.1 (2023): 161-162.





34. KOrinov, Sh, and M. Raupova. "BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA MUZEYLARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI." *PEDAGOGS jurnali* 26.1 (2023): 116-118.
35. KOrinov, Sh. "NOANANAVIY MAYDON TOMOSHA DRAMATURGIYASIDA INVERSIYA USLUBI, KOMPOZITSION BIRLIK ASOSI." *PEDAGOGS jurnali* 26.1 (2023): 113-115.
36. O'rinov, Sh K., and G. A. Nurilloeva. "TASVIRIY SAN'AT MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 1. 2023.
37. O'rinov, Sh K., and X. Abduraxmonova. "MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDAGI BOSHQARUVNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." *PEDAGOG* 6.1 (2023): 226-231.
38. Orinov, Sh K., and S. Boboqulova. "MADANIYAT VA SAN'AT BOSHQARUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI." *ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali* (2022): 78-82.
39. Orinov, Sh K., and N. Sadriddinova. "MADANIYAT MARKAZLARIGA AHOLINI JALB ETISH OMILLARI." *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI* (2022): 123-129.
40. Orinov, Sh K., and E. Sultonmurodova. "XALQ OG'ZAKI IJODINING TARIXIY TARAQQIYOTI." *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI* (2022): 166-172.
41. Orinov, Sh K., and M. Rahmatova. "MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI BOSHQARISHDA IJRO INTIZOMINI TATBIQ ETISH MASALALARI." *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI* (2022): 130-135.

